

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
Alimova Dilafrō'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdıyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH	110
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	116
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	120
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	125
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	131
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQRISH...	136
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	144
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI.....	149
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	154
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	

PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQUARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH

Yusupova Feruza Yo'ldoshevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish asosida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini kengaytirish masalasi o'rganildi. Tadqiqot davomida klaster modelining qiymat zanjiri bo'ylab ta'siri va eksport tarkibidagi tarkibiy o'zgarishlar tahlil qilindi. 2018-2024-yillardagi statistik ma'lumotlar asosida ip-kalava ulushining kamayishi va tayyor mahsulotlar ulushining ortishi aniqlangan. Diversifikatsiya jarayonining vertikal va gorizontal yo'nalishlari baholangan hamda yuqori qo'shilgan qiymatni shakllantiruvchi asosiy omillar tizimlashtirilgan. Olingan natijalar klasterlar faoliyati eksport samaradorligini oshirishga xizmat qilganini ko'rsatgan. Taklif etilgan yondashuvlar tarqoqning raqobatbardoshligini kuchaytirish va xalqaro bozorlarda barqaror o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: diversifikatsiya, paxta-to'qimachilik klasteri, yuqori qo'shilgan qiymat, eksport tarkibi, qiymat zanjiri, tayyor mahsulot, sanoat rivoji, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В статье было исследовано расширение доли продукции с высокой добавленной стоимостью на основе диверсификации производства в хлопково-текстильных кластерах. В ходе исследования проанализировано влияние кластерной модели на цепочку создания стоимости и структурные изменения в экспортной структуре. На основе статистических данных за 2018-2024 годы выявлено снижение доли пряжи и рост доли готовой продукции. Оценены вертикальные и горизонтальные направления диверсификации, а также систематизированы ключевые факторы формирования добавленной стоимости. Полученные результаты показали, что деятельность кластеров способствовала повышению экспортной эффективности. Предложенные подходы направлены на усиление конкурентоспособности отрасли и обеспечение устойчивого роста на международных рынках.

Ключевые слова: диверсификация, хлопково-текстильный кластер, добавленная стоимость, экспортная структура, цепочка стоимости, готовая продукция, промышленное развитие, конкурентоспособность.

Abstract

The article examined the expansion of high value-added products through production diversification in cotton-textile clusters. The study analysed the impact of the cluster model on the value chain and structural changes in export composition. Based on statistical data for 2018-2024, a decrease in yarn share and an increase in finished goods share were identified. Vertical and horizontal dimensions of diversification were evaluated, and key factors contributing to value creation were systematised. The findings showed that cluster development contributed to improving export efficiency. The proposed approaches were aimed at strengthening industry competitiveness and ensuring sustainable growth in international markets.

Keywords: diversification, cotton-textile cluster, value added, export structure, value chain, finished goods, industrial development, competitiveness.

KIRISH

Jahon to'qimachilik bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan davrda mamlakatlar xomashyo eksportiga asoslangan modelni tark etib, qayta ishlash darajasi yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra global to'qimachilik eksportida Xitoy 301 milliard AQSH dollari hajmi bilan yetakchi pozitsiyani egallagan, Turkiya esa Yevropa bozorlariga yaqinligi va vertikal birlashgan tarmoq tuzilmasi hisobiga 35,7 milliard dollarlik eksportga erishgan [1]. Mazkur ko'rsatkichlar global savdoda raqobatbardosh o'rin egallash uchun ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va qiymat zanjirining yuqori



bo'g'inlariga chiqish hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

O'zbekiston dunyoning yetakchi paxta yetishtiruvchi davlatlaridan biri sifatida 2017-yildan boshlab tarmoqni tubdan isloh qilish yo'lini tanlagan. 2018-yilda 15 ta paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 134 taga, ba'zi manbalarga ko'ra 142 taga yetkazilgan [2]. Klaster modelining joriy etilishi paxta yetishtirish, qayta ishlash, ip-kalava va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yagona iqtisodiy zanjirga birlashtirgan, davlat monopoliyasini bartaraf etib, sohani xususiy sektor qo'liga topshirish imkonini bergan.

2023-yildan boshlab respublika paxta tolasini ichki bozorda 100 foiz qayta ishlay boshlagan, bu yuqori qo'shilgan qiymatli kiyim-kechak ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich o'tishni yuzaga keltirgan [3]. Tarmoq bandligi 2018-yildagi 188 ming kishidan 2024-yilga kelib qariyb 600 ming kishiga ko'tarilgan, ish o'rinlarining muhim ulushi ayollar va yoshlar uchun yaratilgan [3]. Hukumat tomonidan belgilangan strategik yo'nalish to'qimachilik eksportini 2028-yilga qadar 7 milliard dollarga yetkazishni nazarda tutadi [4].

Mavjud yutuqlarga qaramay, eksport tarkibida ip-kalava ulushi haligacha sezilarli darajada saqlanib turibdi, tayyor mahsulotlar va texnik to'qimachilik kabi yuqori qo'shilgan qiymatli segmentlar to'liq egallanmagan. Ushbu holat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mahsulot turlarini ko'paytirish va eksport bozorlarini kengaytirishga ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Tadqiqot maqsadi paxta-to'qimachilik klasterlarida diversifikatsiya orqali yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini kengaytirish yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klasterlar nazariyasining konseptual asoslari M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u geografik jihatdan markazlashgan korxonalar va institutlarning o'zaro bog'liqligi raqobat ustunligi manbasi sifatida xizmat qilishini ko'rsatib bergan. To'qimachilik kabi tarmoqlarda klaster yondashuvi mahalliy resurslar va institutsional aktorlarning rolini kuchaytirish orqali raqobatdoshlikni oshirish vositasi sifatida e'tirof etiladi [5]. S. Frederick va N. Cassill tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda klaster va global qiymat zanjiri yondashuvlari to'qimachilik sanoatini tahlil qilishning bir-birini to'ldiruvchi konseptual asoslari ekanligi ko'rsatib o'tilgan [5].

Paxta-to'qimachilik klasterlari masalasi 2018-yildan boshlab xalqaro tadqiqot tashkilotlari tomonidan tizimli ravishda o'rganib kelinmoqda. Jahon banki ekspertlari tomonidan tayyorlangan ma'ruzada O'zbekistondagi klaster modelining tashkil etilishi paxta vertikal zanjirini birlashtirish, ish o'rinlari yaratish va respublikani xomashyo eksportchisidan to'qimachilik mahsulotlari eksportchisiga aylantirish bilan bog'liqligi alohida ta'kidlangan [6]. 2018-yilda paxta tolasining ip-kalava sifatidagi eksportdagi ulushi 47 foizga tushgan bo'lsa, 2019-yilda u biroz oshgan, ammo umumiy tendensiya yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga o'tish sari yo'naltirilgan [6].

Eurasian Geography and Economics jurnalida chop etilgan tadqiqotda 2018-2022-yillarda klasterlar sonining 13 tadan 134 taga yetishi va to'qimachilik mahsulotlarining respublika eksportidagi ulushi 9,1 foizdan 16,5 foizgacha o'sganligi ko'rsatilgan [7]. Ushbu manbada paxta tolasining keyingi qayta ishlash bosqichida ip-kalava sifatida Turkiya va Rossiyaga eksport qilinishi yoki ichki bozorda sotilishi ustunlik qilayotgani, mato va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi esa nisbatan past ekanligi bayon qilingan [7].

Nemis xalqaro hamkorlik agentligi GIZ ekspertlari 2024-yilda chop etgan ma'ruzada respublikada 5600 dan ortiq tikuvchilik korxonasi, 150 ta ip-kalava ishlab chiqaruvchi, 130 ta mato ishlab chiqaruvchi, 250 ta trikotaj kompaniyasi va 110 ta paypoq ishlab chiqaruvchi tashkilot faoliyat yuritayotgani qayd etilgan [8]. Mahalliy mualliflar olib borgan tadqiqotlarda 2018-2022-yillar oralig'ida klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi qiymat ifodasida qariyb 30 barobarga oshgani, ish o'rinlari soni 7,5 barobarga ko'paygani aniqlangan [9].

Davlat darajasidagi me'yoriy hujjatlar to'qimachilik tarmog'ida diversifikatsiya va chuqur qayta ishlashni rag'batlantirish vazifasini yo'nalish sifatida belgilab bergan. Prezidentning 2022-yil 21-yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-53-son¹ Farmoni paxta tolasini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini besh yil ichida 2,1 baravarga, eksportni esa 2,6 baravarga oshirish vazifasini belgilagan [10]. 2023-yildagi PF-2-son Farmon klaster tashkilotchilarini qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar bilan ta'minlash hamda tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish ustuvorligini mustahkamlagan [11].

Adabiyotlar tahlili shuni ochib beradiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati klaster tizimining o'rnatilishi va miqdoriy o'sishi bilan bog'liq jihatlarni qamrab olgan, ammo qiymat zanjirining yuqori bosqichlariga chiqish, mahsulot diversifikatsiyasining iqtisodiy mexanizmlari va eksport geografiasini kengaytirish bilan bog'liq amaliy yo'nalishlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi aynan ushbu bo'shliqni

1 <https://lex.uz/uz/docs/-5833998>

to'ldirishga yo'naltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini baholash uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Nazariy asos sifatida klasterlar nazariyasi va global qiymat zanjiri konsepsiyasi tanlandi, bu yondashuv ishlab chiqarish bosqichlari o'rtasidagi bog'liqlikni tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Empirik tahlilda 2018-2024-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida dinamik va tarkibiy tahlil usullari qo'llandi. Eksport tarkibi mahsulot turlari kesimida foiz ulushlari orqali baholandi, qiymat zanjiri bo'ylab siljishlar qiyosiy usulda aniqlandi. Diversifikatsiya darajasini aniqlashda vertikal (qayta ishlash bosqichlari) va gorizontal (mahsulot turlari kengayishi) mezonlar qo'llandi. Natijalar ishonchliligini ta'minlash uchun ma'lumotlar bir nechta manbalar bilan solishtirildi. Ushbu metodologiya klasterlarning eksport samaradorligi va tarkibiy o'zgarishlarini aniq baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Paxta-to'qimachilik klasterlarining miqdoriy o'sish dinamikasi izchil bo'lib qolmoqda. 2018-yilda 13 ta klaster ekin maydonining 16 foizini qamrab olgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 92 ta klaster 88 foiz maydonni egallagan, 2024-yil yakunlariga ko'ra esa ularning umumiy soni 134 taga yetkazilgan [2]. 2024-yilda respublika to'qimachilik eksporti 2,9 milliard dollarga teng bo'lib, umumiy eksport hajmining 10,6 foizini tashkil qilgan [12]. Mahsulot tarkibida ip-kalava 1,237 milliard dollar, tayyor to'qimachilik mahsulotlari 1,124 milliard dollar, trikotaj matolar 292,1 million dollar, mato 145,9 million dollar miqdorida eksport qilingan [12].

Eksport tarkibidagi mahsulot ulushlari paxta-to'qimachilik klasterlarining qiymat zanjirini chuqurlashtirish bo'yicha mavqeyi to'g'risida aniq tasavvur beradi. Quyidagi jadvalda 2024-yil to'qimachilik eksportining tarkibiy tahlili keltirilgan (1-jadval).


1-jadval.

O'zbekiston to'qimachilik eksportining 2024-yildagi mahsulot tarkibi[2],[12]

Mahsulot turi	Eksport hajmi (mln. AQSH dollar)	Eksportdagi ulushi, foizda	Qayta ishlash darajasi
Ip-kalava (cotton yarn)	1 237,0	42,7	Birlamchi
Tayyor to'qimachilik (ready-made)	1 124,0	38,8	Yuqori
Trikotaj matolar (knitted fabrics)	292,1	10,1	O'rta
Mato (fabric)	145,9	5,0	O'rta
Boshqa mahsulotlar	101,0	3,4	Aralash
Jami eksport	2 900,0	100,0	-

Jadvaldan ko'rinishicha, 2024-yilda ip-kalava eksport tarkibida 42,7 foiz ulushga ega bo'lib, hamon yetakchi pozitsiyani egallaydi. Tayyor to'qimachilik mahsulotlari ulushi 38,8 foizga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich birlamchi qayta ishlanadigan ip-kalava bilan qiyosiy paritetga yaqinlashganini ko'rsatadi. Eng muhim tendensiya tayyor mahsulot ulushining oxirgi olti yil davomida izchil o'sib borishi va ip-kalava bilan farqning qisqarib borishida namoyon bo'ladi. 2018-yilda tayyor mahsulot ulushi nisbatan past darajada saqlanib qolgan bo'lsa, 2024-yilda u eksport hajmining qariyb to'rttdan bir qismini tashkil etdi [3,12].

Eksport geografiasining kengayishi tarmoq diversifikatsiyasining ikkinchi muhim ko'rinishidir. 2023-yilda to'qimachilik eksporti 83 mamlakatga yo'naltirilgan, 2024-yilda esa Yevropa Ittifoqi va AQSH bozorlariga 500 million dollar miqdorida mahsulot yetkazib berish maqsad qilib qo'yilgan [4]. Tarmoqning xorijiy investitsiyalarni jalb qilish salohiyati 5 milliard dollarga teng deb baholangan [4]. Better Cotton Initiative ishtirokida 50 ming gektar paxta sertifikatlangan, 7 ming gektarda esa organik paxta yetishtirilmoqda, bu Yevropa va Yaponiyaning sertifikatlangan bozorlariga kirishni mumkin qiladi [2] (1-rasm).



Diversifikatsiya yo'nalishi: xomashyo eksportidan tayyor brend mahsulotlari eksportiga o'tish

1-rasm. Paxta-to'qimachilik klasterida qiymat zanjiri bosqichlari va diversifikatsiya yo'nalishi²

1-rasmda keltirilgan qiymat zanjiri sxemasi paxta-to'qimachilik klasterining beshta asosiy bosqichini aks ettiradi: paxta xomashyosini yetishtirishdan tortib brendlangan tayyor mahsulotlarni xorijga eksport qilishgacha bo'lgan jarayon. Har bir keyingi bosqich qo'shilgan qiymatning ortishi bilan kechadi va klaster ichidagi sinerjiyani kuchaytiradi. Diversifikatsiyaning iqtisodiy mantig'i shundan iboratki, sof xomashyo eksportiga nisbatan tayyor kiyim-kechak eksporti bir necha barobar yuqori valyuta tushumini ta'minlaydi va aholi bandligini kengaytiradi.

Klaster modelining tarkibiy ta'siri ish o'rinlari yaratish jihatidan ham namoyon bo'ladi. To'qimachilik tarmog'ida bandlar soni 2018-yildagi 188 ming kishidan 2024-yilga kelib qariyb 600 ming kishiga yetgan, ya'ni olti yilda uch barobardan ko'proqqa o'sgan [3]. 2023-yilning o'zida 23 mingdan ortiq yangi ish o'rni paxta-to'qimachilik klasterlari hisobiga yaratilgan [13]. Qishloq mintaqalarida joylashgan klasterlar mahalliy aholining daromad manbasini diversifikatsiya qilishga, ayollar va yoshlar bandligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Jahon banki tahliliga ko'ra, klaster modelida ip-kalava eksportining tushishi bilan birga yuqori qiymatli to'qimachilik mahsulotlari ulushi sezilarli ortgan: 2005-2015 yillarda ip-kalava o'rtacha 64 foiz ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 47 foizgacha kamaygan [6]. Tarkibiy o'zgarishning ushbu tendensiyasi 2024-yil ko'rsatkichlarida ham davom etgan: ip-kalava ulushining 42,7 foizgacha yanada qisqargani diversifikatsiya jarayonining barqaror xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi [12].

Diversifikatsiyaning sifat jihatidan ko'rsatkichi sifatida texnik to'qimachilik, uy to'qimachiligi, gilam ishlab chiqarish va organik mahsulotlar segmentlarining rivojlanishi qayd etiladi. PF-53-son Farmon doirasida besh yil ichida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni 2,1 baravar, eksportni 2,6 baravar oshirish, gilam va uy to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yangi bosqichga ko'tarish vazifalari qo'yilgan [10]. Mazkur yo'nalishlar diversifikatsiyaning ham gorizonta (mahsulot turlari kengayishi), ham vertikal (qiymat zanjiri chuqurlashishi) o'lchamlarini birlashtiradi.

O'tkazilgan tahlil tarmoqdagi tarkibiy o'zgarishlar dinamikasini quyidagicha umumlashtirishga imkon beradi: birinchidan, klaster modelining vertikal integratsiyalashuvi 2017-yildan beri jadal sur'atda kechgan; ikkinchidan, ip-kalava eksportining muqobil bo'g'inlari (mato, trikotaj, kiyim-kechak) bosqichma-bosqich kengayib bormoqda; uchinchidan, qiymat zanjirining yuqori bosqichlariga o'tish uchun moliyaviy va texnologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari rivojlanmoqda; to'rtinchidan, sertifikatlash va sifat boshqaruvi orqali Yevropa hamda Yaponiya bozorlariga kirish istiqbollari ochilmoqda [2,4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil paxta-to'qimachilik klasterlari O'zbekiston iqtisodiyotida xomashyo eksportchisidan tayyor mahsulotlar eksportchisiga o'tish vositasi sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi. Klaster modelining joriy etilishi vertikal integratsiya, bandlikni oshirish va eksport tarkibini yaxshilashda sezilarli natijalar bergan. Tayyor to'qimachilik mahsulotlari ulushining 38,8 foizga yetishi va ip-kalava bilan farqning qisqarishi diversifikatsiya jarayoni izchil sodir bo'layotganidan dalolat beradi.

Diversifikatsiyaning samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqilgan. Birinchidan, klasterlar ichida bo'yash, finishing va dizayn bosqichlarini chuqur rivojlantirish lozim, chunki ushbu bosqichlar qiymat zanjirining eng yuqori marja keltiruvchi bo'g'inlaridir [5]. Ikkinchidan, Better Cotton va organik sertifikatlash dasturlarini kengaytirish, OEKO-TEX standartlarini joriy qilish Yevropa Ittifoqi va Yaponiya bozorlariga kirishni soddalashtiradi [2].

Uchinchidan, gilam va uy to'qimachiligi, texnik to'qimachilik kabi yangi segmentlarni rag'batlantirish, mahsulot diversifikatsiyasining gorizonta yo'nalishini kuchaytiradi [10]. To'rtinchidan, klaster tashkilotchilariga

2 Manba: M. Porter va S. Frederick yondashuvlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

R&D, brending va dizayn xarajatlarini qoplashga yo'naltirilgan moliyaviy preferensiyalarni unifikatsiyalash sanoatning innovatsion salohiyatini oshiradi [11]. Beshinchidan, kichik va o'rta korxonalarni klaster ekotizimiga jalb qilishni kengaytirish va xalqaro brendlar bilan strategik hamkorlikni rivojlantirish lozim, bu eksport geografiasini an'anaviy bozorlardan tashqariga kengaytiradi [13].

Oltinchidan, klaster faoliyatini baholashning ko'p o'lchovli mezonlari (qo'shilgan qiymat, eksport ulushi, ish o'rinlari sifati, sertifikatlash darajasi) takomillashtirilishi lozim [14]. Yettinchidan, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yechimlarini ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga joriy etish klasterlarning xalqaro raqobat zaminida samaradorligini oshiradi. Olingan natijalar va taklif etilgan yo'nalishlar tarmoqning 2028-yilgacha bo'lgan strategik rivojlanish dasturini amalga oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi va to'qimachilik sohasini yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yetkazib beruvchisiga aylantirish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi [15].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Top Textile Countries 2025 — Global Leaders Textile Industry. Kohan Textile Journal, 2025. <https://kohantextiljournal.com/top-textile-countries-global-leaders-textile-industry/>
2. Cotton and Products Annual: Uzbekistan 2025. USDA Foreign Agricultural Service, 2025. https://apps.fas.usda.gov/newgainapi/api/Report/DownloadReportByFileName?fileName=Cotton+and+Products+Annual_Tashkent_Uzbekistan+-+Republic+of_UZ2025-0001.pdf
3. Weaving a New Future in Uzbekistan's Cotton Sector. World Bank, 27 May 2025. <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2025/05/27/weaving-a-new-future-in-uzbekistan-s-cotton-sector>
4. Uzbekistan's textile exports reach \$3.1bn in 2023. Daryo News, 16 April 2024. <https://daryo.uz/en/2024/04/16/uzbekistans-textile-exports-reach-31bn-in-2023>
5. Frederick S., Cassill N. Industry clusters and global value chains: analytical frameworks to study the new world of textiles. Journal of the Textile Institute, 2009, vol. 100, no. 8, pp. 668-681. <https://scholars.duke.edu/publication/1598894>
6. Cotton-Textile Clusters in Uzbekistan: Status and Outlook. World Bank Group, Policy Dialogue on Agriculture Modernization, 2020. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/305731601271791257/pdf/Policy-Dialogue-on-Agriculture-Modernization-in-Uzbekistan-Cotton-Textile-Clusters-in-Uzbekistan-Status-and-Outlook.pdf>
7. Uzbekistan's cotton clusters in the context of the industrial policy debate. Eurasian Geography and Economics, Taylor & Francis, 2023. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/15387216.2023.2267093>
8. A textile giant in the making? — A look at the Textile and Apparel Sector in Uzbekistan, 2024. Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ), 2024. <https://www.giz.de/de/downloads/giz2024-en-a-textile-giant-in-the-making.pdf>
9. O'zbekistonda paxtachilik majmuasining iqtisodiy samaradorligini oshirish. ResearchGate, 2023. <https://www.researchgate.net/publication/376421099>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6859677>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash... chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://www.lex.uz/docs/-6351331>
12. 2024 Uzbek textile sector export worth \$2.9 bn; 10.6% of total exports. Fibre2Fashion, 10 March 2025. <https://www.fibre2fashion.com/news/textile-news/2024-uzbek-textile-sector-export-worth-2-9-bn-10-6-of-total-exports-301243-newsdetails.htm>
13. Uzbekistan's textile sector: A Giant in the making. UzDaily, 2024. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-textile-sector-a-giant-in-the-making/>
14. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini baholash mezonlari aniqlashtirildi. Kun.uz, 14 March 2020. <https://kun.uz/news/2020/03/14/paxta-toqimachilik-klasterlari-faoliyatini-baholash-mezonlari-aniqlashtirildi>
15. Paxta-to'qimachilik klasterlari. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi rasmiy sayti, 2024. <https://uzts.uz/uzb/paxta-to-qimachilik-klasterlari/>

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100